

DOI: 10.5281/zenodo.15665826

Link: <https://zenodo.org/records/15665826>

## XIX ASR IKKINCHI YARMIDA BUXORODA IJTIMOIIY FALSAFIY QARASHLAR TIZMINING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

Miltiqboyev Bobir Zokirovich

O'zbekiston Milliy universiteti

mustaqil izlanuvchisi

[zokirovich93@gmail.com](mailto:zokirovich93@gmail.com)

+99890 239 52 52

**Annotatsiya:** ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro hududida ijtimoiy falsafiy qarashlarning shakllanishi va rivojlanishiga oid ilmiy-nazariy qarashlar tahlil qilingan. Buxoro amirligida shakllangan ijtimoiy-falsafiy qarashlar tizimining nazariy metodologik asoslarini tadqiq qilishga oid qarashlar yoritilgan. Mazkur maqolada Buxoro ziyolilari, xususan, Ahmad Donish singari ma'rifatparvar mutafakkirlarning jamiyat taraqqiyoti, adolat, ilm-ma'rifat va ijtimoiy tenglik haqidagi g'oyalari falsafiy tahlil etilgan. Bu qarashlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy, siyosiy va madaniy omillar o'rganilgan. Shuningdek Sharq va G'arb falsafasi o'rtasidagi dialektik munosabat ham yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ahmad Donish, ilm-ma'rifat, adolat, islohot, tarixiy davr, Buxoro, ijtimoiy falsafa.

### KIRISH

Buxori-sharifdek tabarruk zamindan qanchadan qancha olimu fuzalolar yetishib chiqqan. Ularning ma'naviy merosi, ilmiy qarashlari oradan qancha vaqt o'tgan bo'lsada ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. O'zidan ana shunday o'chmas iz qoldirgan siyosatchi, faylasuf olim Ahmad Donishdir.

Ahmad Donish o'zining ilmiy merosi bilan nafaqat falsafa balki tarix, adabiyot, siyosat sohalariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan buyuk donishmand, ajoyib sayyoh sifatida bir qator fanlarning rivoji va tarixida so'nmas iz qoldirgan yetuk olimdir. U o'zining faoliyati davomida siyosiy, falsafiy, madaniy, g'oyaviy qarashlarini bir qancha risolalari orqali yozib qoldirgan. Buyuk faylasuf, siyosatchi va olim Ahmad Donish “Ahmad Kalla”, “Ahmad maxdum”, “Muhandis” nomlari bilan o'z zamonasida shuhrat qozongan.

Ahmad Donish 1827 yili Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida mudarris oilasida tavallud topgan. Dastlab maktabda so'ngra otasining madrasasida o'qigan. U falsafa, tarix, adabiyot, astronomiya, tabobat fanlariga juda qiziqqan hamda xattot va rassomchilik bilan ham shug'ullangan. Mutafakkir dastlab ilmni onasidan oladi uning onasi Sakina Abdurhamon qizi o'qituvchi bo'lganligi sababli dastlabki ta'limni onasidan oladi. Onasi o'z uyida o'quvchilarga dars bergan. Onasidan geometrik shakllar va alifboni maktabga chiqqunga qadar onasidan o'rgangan. Bu haqida Ahmad Donish: maktabga borishimdan oldin oilamizdagi boshqa bolalar qatori onamdan alifboni o'rgandim, o'qish va yozishni va hatto qo'shiqlarni tartibga solishni o'rgandim. Loyshuvoq devorga qalam bilan geometriya shakllarini solganimni aniq eslayman, deya qayd etgan<sup>56</sup>.

<sup>56</sup> Toshqulov D. Donish., -M., 1990. B.70.

## ASOSIY QISM

Ahmad Donishning otasi mudarris bo'lgani sababli o'g'lining diniy olim olishini istab madrasaga beradi va u yerda Qur'oni Karimni yod oladi<sup>57</sup>. Uning tili tutilib gapirgani sababli yodlash juda qiyin kechadi. Uch yillik davr mobaynida u maqsadiga erishadi, ya'ni Qur'onni yodlab hofiz bo'ladi. Ilmga chanqoq talaba diniy bilimlarni egallash bilan birga matematika, geometriya, astronomiya, musiqa, falsafa va tarix mustaqil o'rganadi. Qomusiy bilimlar sohibi bo'lgan Ahmad Donish sharq mutafakkirlarining asararini mukammal o'rgangan. Uni malakali husnixat egasi bo'lganligi uchun mang'itlar amirlari saroyiga xizmatga olishadi. Uning bilimdonligi va ilmiy saviyasi tez orada katta lavozimlarda ishlashiga, Buxoro amiri, vazirlar va boshqa oliy martabali amaldorlar bilan tanishishga imkoniyat yaratib berad. Ahmad Donish Buxoroda tahsil olgach mang'it amirlaridan Nasrullaxon (1806-1860), Muzaffarxon (189-1885), Abdulahadxon (1859-1910) davrlarida turli lavozimlarda faoliyat yuritgan Ahmad Donish uch marotaba Rossiyaga Buxoro amiri elchilari sifatida tashrif. buyurgan va sayyohlik davrida ko'rgan kechirganlarini risola shaklida bitgan. Ahmad Donishning siyosatshunosligi va bilim saviyasi sababli rus podshosi e'tiborini tortgan, hurmatiga sazovor bo'lgan.

XIX asr ikkinchi yarmi Buxoro amirligi iqtisodiy va siyosiy jihatdan ancha kuchsizlanib borayotgan edi. Rossiya va Britaniya imperiyalarining Markaziy Osiyo uchun geosiyosiy kurash olib borayotgan bir vaqtda Buxoro amirligi ichki siyosiy beqarorlik va ijtimoiy ziddiyatlar bilan to'qnashayotgan edi. Shunday sharoitda Ahmad Donish ijtimoiy falsafiy qarashlarning rivojiga quyidagi omillar katta ta'sir ko'rsatdi.

Islom falsafasi va Sharq mutafakkirlarining ta'siri. Buxoro ilmiy va diniy markaz bo'lganligi sababli islom falsafasi yetakchi rol o'ynagan. Ibn Sino, Farobiy va G'azzoliy kabi Sharq mutafakkirlarining asarlari keng o'rganilgan. Bu esa inson va jamiyat haqidagi qarashlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Tasavvuf ta'limotining ta'siri. Buxoro tasavvuf ilmining markazlaridan biri bo'lgani va Naqshbandiya tariqati asosiy oqimlardan biri edi. Bu falsafiy yo'nalish ijtimoiy hayot va axloqiy tamoyillarga ta'sir ko'rsatib, insonning ichki dunyosi va ruhiy kamolotiga urg'u bergan.

An'anaviy va diniy qarashlar ta'siri. Bu davrda ulamolar va diniy rahnomalar islomiy-huquqiy normalar asosida ijtimoiy hayotni boshqarishni maqul ko'rgan. Bu esa qisman darajada falsafiy tafakkurning rivojlanishiga to'sqinlik qilgan.

Tashqi dunyo bilan aloqalar ta'siri. Rossiya bilan diplomatik aloqalarning kuchayishi g'arb falsafasi va siyosiy g'oyalarni ma'lum darajada kirib kelishiga zamin yaratgan.

XIX asrda Buxoroda ijtimoiy falsafiy qarashlar namoyondalaridan Ahmad Donish asarlari falsafiy tafakkurning emperik va nazariy tahlil usullari, tanqidiy yondashuv va islohot g'oyalari, Sharq va G'arb falsafasini qiyosiy o'rganish, adolat va axloqiy tafakkur kabi metodologik asoslarini ochib bergan.

O'z asarlarida jamiyat va davlatt boshqaruvi haqida tahliliy fikrlar yuritib, tarixiy tajribalar va amaliy uzatishlarga asoslanib, davlatning muvofaqqiyat va inqiroz

<sup>57</sup> Rahmonov T.E. Orziyev M.Z. "Ikki tarixiy siymo". Buxoro 2015 yil 8-9-b.

sabablarini tahlil qilgan. An’anaviy boshqaruv tizimini tanqid qilib, davlat va jamiyatni isloh qilishni taklif qilgan. Ta’lim va ma’rifat taraqqiyotning eng muhim omillaridan biri ekanligini ta’kidlagan sharq va g’arb falsafasini tahlil qilib musulmon jamiyatlarining ham boshqaruv tizimini isloh qilish masalalarini ilgari surgan. Axloqiy qadriyatlar va adolat jamiyat barqarorligi uchun asosiy omil deb bilgan.

Falsafiy bilimlar rivojiga ulkan xissa qo’shgan zabardast olim Ahmad Donishdan bizga ulkan madaniy va ma’naviy meros qolgan bo’lib, uning qamrovi juda keng. Sadridin Ayniy, Ibrohim Haqqul, Sadri Ziyo, Sotim ulug’zoda kabi atoqli olimlar mutfakkir hayoti va ijdoni tadqiq etishgan.

Ahmad Donish xalq orasida Ahmad Kalla nomi bilan mashxur bo’lgan. Filologiya fanlari doktori Ibrohim Haqqulov “O’n to’qqizinchi asrdagi Buxoro shahrida Ahmad Donishdek olim, adib, mutafakkir va davlat arbobining kamol topishi hayratlanarli hol. Ilm-fanning sayozlashuvi, ma’rifat bo’shtonlarining qovjirashi, hurriyat nurlarining so’nishi Buxoroning tinka-madorini quritgan edi. Davlat va hokimiyat Buxoroi-sharif ahli xoxish-irodasiga zid bo’lgan aqida va orzu havaslarga tobe edi. Rost so’z, to’g’ri fikrning bir chaqalik qiymati bo’lmagan ana shunday qaltis sharoit va badbo’y muhitda Ahmad Donish saroy xizmatida yurgan”<sup>58</sup>-deya ta’riflaydi.

A.Razzoqovning “Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari” nomli asarida ham Ahmad Donishning iqtisodiy qarashlarini keltiradi. XIX asrning oxirlarida jahonda yirik o’zgarishlar davri edi, monopoliyalar yuzaga kela boshladi ko’plab yangi industrial davlatlar paydo bo’ldi, yangi sinflar - burjuaziya va ishchilar sinfi tashkil topdi, nisbatan erkin mehnat asosiy o’ringa chiqqa boshladi. Ammo Turkiston o’lkasida va ayniqsa Buxoroda hunarmandchilik hatto manifaktura darajasiga ko’tarilmagan edi, iqtisodiyotda mayda mahsulot ishlab chiqarish yetakchi edi. Qishloq xo’jaligida natural xo’jalik ustun bo’lgan. Yevropada esa, XIV—XV asrlarda manifaktura, XVIII asrda fabrika paydo bo’lgan. Sug’orma dehqonchilik yangi yerlar ochish va suv bilan ta’minlashni talab qilgan. Yer yetishmasligi chokarlikka olib kelgan. Buni ko’plab tarix asarlarda ham o’z ifodasini topgan. G’arbda esa, fermerchilik munosabatlari rivoj topdi. Shu bilan birga, boshqa mamlakatlar ta’siri ostida davlatni boshqarish, xo’jalik yuritishda yangi usullar joriy etishni vaziyat talab qila boshladi.

Mutafakkirlar mamlakatni og’ir ahvolidan olib chiqish, xalq turmushini yaxshilash iqtisodiy munosabatlarda ma’lum qonun-qoidalarning ustuvorligini taminlash yangi iqtisodiy imkoniyatlarni izlab topish yo’llarini ilgari surdilar. Ayniqsa bozorlardagi ahvol og’ir edi, bu yerda tarozidan urib qolish, turli yig’imlar va boshqa salbiy holatlar rivoj topdi. Bu xalq orasida noroziliklarni keltirib chiqardi. Rossiya vassali sifatida Buxoroda ham ayrim ijobiy o’zgarishlar uchun sharoit vujudga keldi. Ko’pgina mutafakkirlar mamlakatdagi barcha sohalarni isloh qilish bo’yicha takliflar berishdi, ammo ular e’tiborsiz qoldirildi<sup>59</sup>.

Rost so’z, to’g’ri fikrning bir chaqalik qiymati bo’lmagan ana shunday qaltis sharoit va badbo’y muhitda Ahmad Donish saroy xizmatida yurgan. Ahmad Donishning hayoti va ijtimoiy faoliyati XIX asrga kelib qoloqlashib qolgan, o’rta

<sup>58</sup> I.Haqqul. Ahmad Kalla. Esse. kh-davron.uz electron kutubxonasi. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/ibrohim-haqqul-ahmad-kalla-esse.html> 13.03.2023. 14:12.

<sup>59</sup> Razzoqov A. “Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari” – Toshkent., O’zbekiston 2011 yil. B-224-225.

asrchilik munosabatlari hanuz davom etayotgan Buxoro amirligining poytaxti bo‘lmish Buxoro shahrida kechadi. Alloma ijtimoiy - siyosiy qarashlarining shaklanishida o‘z davri mulkiy munosabatlarning ta’siri sezilarli darajada ko‘rinadi. Ahmad Donish yashagan davr iqtisodiy hayotida mulkiy munosabatlar, xususan yer egaligi, uning o‘ziga xos xususiyatlariga shariat qonunlari va huquqshunosligi moslashtirilgan edi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Ahmad Donishning ijtimoiy-siyosiy qarashlarida ishlab chiqarishning ana shu munosabatlari bilan bog‘liklik alomatlari seziladi. Ijtimoiy - siyosiy hayotni o‘zgartirishning ma’rifatparvarlik va islohotlar o‘tkazish yo‘li bilan o‘nglanib, rivojlanib ketishiga ishonch uchqunlari porlab turar edi.

Ahmad Donish Buxoro amirligining iqtisodiy –siyosiy va ma’naviy jihatdan ortda qolayotgan bir davrda yashab ijod etgani va uning asarlarida asosiy mavzu adolatli davlat boshqaruvi va ta’lim tizimini isloh qilish masalalariga juda katta e’tibor qaratadi. Ahmad Donishning amir elchilari sifatida Rossiyaga tashrifi davomida Rossiya madaniyati siyosiy tuzimi va jamiyat taraqqiyot yo‘lini o‘rgangan. Bu esa Buxorodagi qoloqlikni sabablarini bartaraf etish islohotlar amalga oshirish zarurligi haqida fikr yuritishga undagan. Ahmad Donish Buxoro amirligi haqida o‘zining “Risola yoxud Mang‘itlar xonadoni saltanatining qisiqacha tarixi” risolasida ma’lumotlar berilgan.

Buxoro amirligi mang‘itlar sulolasi davrida Amir Nasrulloxon davrida vaziyat bir muncha yaxshi bo‘lgan. Ilmiy adabiyotlar va Venger sayohatchisi X.Vamberining yozishicha “Muzaffardin qobiliyatlariga qaramasdan otasi ko‘ziga baloday ko‘rinar, chunki uni Amir Nasrullox taxtga raqibday ko‘rar va bu qo‘rquvdan halos bo‘lish va o‘g‘lini nazorat qilish uchun Karmanaga noib qildi”<sup>60</sup>. Amir Muzaffar 19 yil Karmanaga noiblik qildi. 1960 yil otasi vafot etganidan keyin taxtni egalladi. Ahmad Donish o‘zining risolasida Muzaffarxoonga shunday ta’rif beradi. Nasrulloxning amir amiq Muzaffardan boshqa o‘g‘li yo‘q edi. U o‘z farzandining tabiatida g‘arazgo‘ylik va shafqatsizlikni ko‘rdi. O‘zi raiyat qo‘shiniga g‘amho‘r bo‘lganligi tufayli farzandining o‘zidan keyin davlat tepasida turishini istamadi. Shu tufayli, o‘z nabiralaridan birini valiahdlikka tayinladi. Va ayrim amirlarga davlatni unga topshirishni vasiyat qildi.

Amir Nasrulloxon vafot eganidan keyin uning tarafdorlari va Amir Muzaffarxo tarafdolari o‘rtasida munozara ketdi va Amir Muzaffarxon tarafdorlari g‘olib bo‘ldi. Amir Muzaffar hokimiyat tepasiga kelgandan so‘ng mansab egasi bo‘lgan otasi davrida mansabga ega bo‘lgan barcha vazirlar, a’yonlar va amirlarni lavozimlaridan tushurdi. Mol mulklarini musodara qilib shahardan chiqarib yubordi. vasiyat qilingan nabira va uning qarindoshlari Buxoroni tark etdi. Qochishga ulgurmaganlari qatl etildi. Hokimiyat tepasiga esa o‘zining yaqinlarini tayinladi. Ular esa xalqqa tazyiq o‘tkaza boshladi. Qo‘pol muomila qilib, nazar pisand qilmasdi. Bu vaqtda xalq tich totuv va farovon yashashni xoxlar edi. Tinchlikka erishish maqsadida qo‘zg‘olonlar qilgan. Amir Muzaffarxon hukumronligi davrida aholiga omonlik bermay, qatlgaga yetkazdi. Xalq orasida xusumat kuchayib bordi. Shariat ko‘rsatmalarini ham o‘z xoxishiga qarab o‘zgartirar, amaldorlarning mulklarini musodara qilar, xalqqa nisbatan adolatsizliklar

<sup>60</sup> Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. –Тошкент, 1991

kuchaydi ana shunday tahlikali zamonda yashagan Ahmad Donishning ilmiy qarashlarida inson va uning qadr qimmatı, davlat boshqaruvini isloh qilish asosiy masalalardan edi.

Rossiya hukumati istilosi davrida Buxoro amirligida mana shunday vaziyat ularning osonlik bilan bosib olishiga imkoniyat berdi. Amir Muzaffarxon buyrug‘i bilan askarlar qullarga xizmat qilishar, xizmat qilishni xoxlamagan askarlar qo‘shindan ketishar bu esa viloyatlarning Rossiya tasarrufiga o‘tib ketishiga zamin yaratdi. Ahmad Donish mang‘itlar sulolasi haqidagi risolasida shunday deydi. “Buxoro vazirligi Muhammadshoh qo‘shbegi qo‘lida edi. Bu odam kaltafahm, savodsiz, beaql edi, doim kasal bo‘lib, to‘g‘ri so‘zni ham podshoga yetkaza olmasdi. Hech kim davlat foydasiga biror narsa deyishga jur‘at topa olmas, shu sababdan millat va davlatning ishlari to‘liq inqirozga yuz tutdi, qo‘shin va xalq o‘rtasida osoyishtalik yo‘qoldi. Aslida mamlakat ravnaqi vazirning ziyorakligi, qat‘iyatligi, to‘g‘ri mulohaza yuritishiga bog‘liq. Agar vazir bemulohaza bo‘lsa, bunday davlatning holiga voy”<sup>61</sup>.

Ahamad Donishning sayohlik davrida Yevropa madaniyati, ilm-fan sohasidagi yutuqlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu esa mutafakkir qarashlarini o‘zgartirib yubordi jamiyatni isloh qilish qahidagi qarashlari Amir Muzaffarxonga yoqmadi va uni Huzarga qozi etib jo‘natib yubordi. Ahmad Donish xalq va davlat hokimiyat va yurtning tanazzuldan olib chiqishni ko‘p o‘ylardi. Ahmad Donish xalqni tanazzuldan olib chiqishning yagona yo‘li axloq va tafakkurda deb hisoblardi. U xalqni ma‘rifatparvar qilish yo‘lida o‘z uyida adabiy kechalar tashkil qilgan. Ushbu kechalarda ta‘lim tizimi va boshqaruv sohasini o‘zgartirish kabi mavzularda munozaralar ham bo‘lgan. Mutafakkir Buxoro madrasalaridagi ta‘limni isloh qilish g‘oyasining XIX asr ikkinchi yarmidagi ashaddiy targ‘iborchisi, amaliyotchisi, qo‘rqmas va jasur tarafdori bo‘lib maydonga chiqdi. U yashagan shaharda mutaassiblik kuchli bo‘lgan chog‘da shijoatli qadam qo‘yish uchun o‘sha davr ijtimoiy - siyosiy hayotida katta mavqe va ta‘sirga ega bo‘lish kerak edi. Ahmad Donish ana shunday salohiyatga ega edi. U Madrasa mullalarining unga qarshi birlashib isyon ko‘tarishlarini bilardi. Mullalar, eshonlarning zodagonlar va amaldorlar bilan umumiy manfaatlari yagonaligini yaxshi anglar edilar. U o‘z zamonasining ana shunday mutaassiblik botqog‘iga botgan kuchlariga qarshi bosh ko‘tardi<sup>62</sup>.

Sadri Ziyo “Navodiri Ziyoiya” tazkirasida Ahmad Donish, amir, vazir, qozikalon va boshqa bir qancha lavozimlarda faoliyat yuritgan. U boshqa amaldorlarni oddiy xalqqa zulm o‘tkazmaslikka chorlash, zo‘ravonlik, beraxmlikdan qaytarishdek ezgu ishlarga sarflagan lekin jamiyat hayotida biron bir o‘zgarish ko‘rmagan.

Ahmad Donish o‘z risolasida Amirlikning ruslarga yengilishi bir mecha sabablarini keltiri o‘tgan. Qabih va qullarning mavqe‘ini ko‘tarilishi askarlarning ularga xizmat qilishga buyruq berilishi orqali askarlar o‘zlarini o‘brosi bunga mos kelmasligini tushinib ko‘pchilikni qo‘shinni tark etishi, bir askarning maoshi to‘rt askarga bo‘lib berilishi, bir noibning maoshi ikki noibga berilishi ortidan harbiy kuchlarning barqaror emasligi, kuchli harbiy kadrlarning yetishmasligini afsus bilan qayd etadi.

<sup>61</sup> Ahmad Donish. Risola yoxud Mang‘itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. Dushanbe 1992. B-23.

<sup>62</sup> T.E.Rahmonov, M.Z.Orziyev. “Ikki tarixiy siymo” Buxoro 2015. 32-b.



Jangga qo'shin to'plagan bolsa-da ularning soni va qurollanishi aniq emasligi, xatto, oddiy aholi raiyatning jangda ishtirok etishi qoralangan. "Askarlarni boqishdan maqsad mamlakat va xalqni dushman xavfi, bosqinidan himoya qilishdan iborat. Ular o'z qonlari pulini xarbiy voqealar boshlanmasdan oladilar. Shuning uchun raiyat muxobara davrida askarlardan oldinda turmasligi kerak. Tinchlik davrida aholi qonini ichsayu, urush davrida aholi oldinga chiqsa, bu eshitilmagan yangi tartib biror millatda uchramagan"<sup>63</sup>.

Mamlakatning yengilishida harbiy qo'shinlarning mustahkam tashkil etilmagani, harbiy qurol-aslahalar bilan yetarli ta'minlanmagani oqibatida Samarqand, Jizzax va Yangiqo'rg'on singari hududlarning osongina mustamlaka bo'lishiga olib keladi. Chor rossiyasi tomonidan Buxoro amirligining osongina yengilishi va uning mastamlakalari qatoriga kirishiga Ahmad Donish ilmsizlik va jaholat ekanligi ta'kidlaydi. Jamiyat va davlat isloh qilinmas ekan bu sulola qulashi muqarrar degan xulosaga keladi<sup>64</sup>.

Ahmad Donish xalq dardi bilan yashagan inson bo'lganligi sababli viloyatlarni piyoda kezib xalq qiyinchiliklarini o'rgangan. Suvsizlikdan qiynalayotgan xalq uchun suv ta'minotini to'g'ri tashkil qilish va suv tanqisligi tashvishidan ozod qilishni taklif qilgan buning uchun Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolarini suv to'planish irmoqlarini birlashtirish orqali yog'ingarchiliklar kam bo'lgan vaqtlarda ham suvsizlikdan aziyat chekmaslikni taklifi bilan murojaat qiladi. Ammo uning bu takliflari e'tiborsiz qoldirilishi va Zarafshon vodiysining Zirabuloqqa bo'lgan qismini Rossiya hukumati tomonidan bosib olinishi suv taqsimoti Buxoro tasarrufidan chiqib xalqning suvsizlikdan qiynalishi va asosiy iqtisodiy manba dehqonchilik bilan bo'lganligi sababli rahbarlarning suv ta'minoti ustida bosh qotirishga majbur qilgani va suvsizlikni bartaraf etish to'g'risida qayg'urishga majbur etgan.

Sobir O'nar o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida Ahmad Donish davrida ijtimoiy hayot nomli maqolasida shunda deydi: "Amir Temur dunyoning to'rtidan bir qismida jasorati, mardligi bilan nom qozongan bo'lsa Buxoro amirlari badaxulqliklari, irodasizliklari, qo'rqqoqliklari bilan o'z nomlarini badnom qildilar. Buxoro va Samarqand adolat, insof, dinu diyonat, ilmi amali bilan dunyoga dovrug'i ketgan shaharlardandir. Bular ushbu shaharlarni shunchalik badnom qildilarki, buning sharmandaligi qiyomatgacha qoladi, tarix varaqlaridan o'chmaydi. Mang'itlar o'tmishi ham bizning o'zbek xalqining tarixidir. Tarixdan esa vos kechib bo'lmaydi. Faqat saboq chiqarish mumkin. U shuning uchun ham muhimdir"<sup>65</sup>.

Buxoro amirligida yerga nisbatan mulkiy munosabat uch turda edi.

Amlok yerlar - amirlik hududidagi dehqonchilik uchun yaroqli yerlar, amir ixtiyoridagi yerlar;

Vaqf yerlari –madrasa honaqoh, mozorlarga qarashli yerlar;

Mulk yerlari – xususiy yerlardan iborat bo'lgan.

Buxoroning iqtisodiy hayotida dehqonchilik asosiy ahamiyatga ega bo'lgan. Xalq dehqonchilik bilan shug'ullanib amirlikka soliqlar to'lar edi. Qishloq xo'jaligi

<sup>63</sup> Ахмад Дониш.Рисола ёхуд манғитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи. –Тошкент, 2014. –Б. 42

<sup>64</sup> Qarang: o'sha manba. B-62-53.

<sup>65</sup> Sobir O'nar "A.Donish davrida ijtimoiy hayot". "Yoshlik" //, 2014 yil, 5-son

ustuvor ahamiyat kasb etganligi sababli suv ta'minoti hal qiluvchi omil hisoblangan. Suv tarmoqlari manbalari ham amir va yirik yer egalariга tegshli bo'lgan. Dehqonlar uchun yer va suv manbai asosiy qaramlik vositalaridan biri bo'lgan.

## NATIJALAR

Buxuro amirligining chor Rossiyasi yurishlari davrida yengilishi va sulh shartnomasining tuzilishi xalqning soliqlarga ko'mib tashlanishi va ular hayotining yanada og'irlashuviga sabab bo'lgan. Bu haqda Sadridin Ayniy o'zining “Esdaliklari”da “1868 yillargacha- Buxoro amiri bilan rus podshohi orasida tuzilgan sulnomagacha, Buxoro muzofotining boshqa tumanlari kabi G'ijduvon tumanidagi amlok to'laydigan dehqonlar ham yer hosilining o'ndan to'rt qismi, ya'ni qirq foizini podshohlikka berar ekanlar. Mazkur sulhnomadan keyin, rasman hali yozilmagan qonuni buzilmagan bo'lsa ham, amir Muzaffar Rossiyaga beradigan to'voni bahona qilib, ma'murlarga imkon boricha dehqonlardan yer solig'ini ko'proq undirib olish to'grisida og'zaki ko'rsatma bergan. Bu buyruqqa muvofiq ma'murlar dehqonlarning terisini shilishga kirishganlar”<sup>66</sup>- deya bayon etgan.

Buxoroda davlat rahbari amir bo'lib cheklanmagan monarxiya ya'ni hokimiyat va huquqlarga ega bo'lgan. Hokimiyat otadan bolaga meros bo'lib qolgan. Ana shunday og'ir va tahlikali zamonda Ahmad Donish har bir qiyinchiliklar va qarshiliklarga qaramasdan o'z qarashlaridan vos kechmadi shuning uchun uning ijtimoiy falsafiy qarashlarida mardonavorlik va rostlik yaqqol namoyon bo'ladi.

Ahmad Donish fikricha, jamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan har bir inson mansabi, moddiy mavqei jihatdan farqlanishi mumkin, ammo ijtimoiy yoki umuminsoniy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirib, uni namoyish etish nuqtai nazaridan hamma birdek mavqega egadir.

XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi ijtimoiy, siyosiy va madaniy jihatdan qoloqlik holatida bo'lib shu davrda yashagan mutafakkirlar jamiyatdagi muammolarni anglab, islohotlar va rivojlantirish zarurligi haqida fikr yuritganlar. Buxorodagi ijtimoiy-falsafiy qarashlar tizimi shu muhit va tarixiy sharoitga bog'liq holda shakllangan bo'lib nazariy – metodologik asoslari shu omillar zamirida shakllangan. Ijtimoiy-falsafiy tafakkurning yo'nalishlari quyidagilardan tashkil topgan.

Birinchi dan tanqidiy tafakkur va islohot g'oyalari: ko'proq Ahmad Donish ijdodida ijtimoiy hayot tanqid qilingan va ilosohotlar zarurligi g'oyalari targ'ib qilingan. O'zining “Navodir- ul vaqoe” asarining birinchi faslida hukmdorlarning adolatsizligi, mutaassublik va qoloqlikni keskin tanqiq qilgan.

Ikkinchi dan davlat va jamiyat haqidagi qarashlari: ijtimoiy-falsafiy tafakkur asosida davlat boshqaruvi va adolat masalalari markaziy o'inda turgan. Adolatli boshqaruv uchun chuqur bilim va tafakkur kerakligini ilgari surgab. Farovonligi uchun mas'ul ekani va u ilmsiz bo'lsa jamiyat tanazzulga yuz tutishini ilgarei surgan.

<sup>66</sup> S.Ayniy “Esdaliklar” T.-5 -tom: 1965. 149-bet

Uchinchidan diniy mutaassiblik va taraqqiyot g'oyalari ilgari surilgan: bu davrda ilm – ma'rifatning o'rni juda katta bo'lgan. Ahmad Donish izlanishlari natijasida Rossiya va Yevropa mamlakatlarining rivojlanishi va taraqqiy etishining sababi ilmiy yutuqlar ekanini qayd etadi. Madrasalarda faqat diniy bilimlar emas dunyoviy bilimlar ham berish kerakligini ta'kidlaydi.

Diniy mutaassiblik va uning tanqidi: bu davrda diniy mutaassiblik ustuvorlik qilgani sababli ijtimoiy taraqqiyotni cheklab qo'ygandi. Ahmad Donish va zamonasining boshqa ilg'or fikrlovchi olimlari islomning asl mohiyatini tushunish va diniy ta'limni yanada ma'rifiy yo'nalishda rivojlantirish zarurligi ilgari surishgan.

Buxorodagi XIX asrning falsafiy tafakkuri quyidagi nazariy asoslarga tayangan:

1. **Empirik va kuzatuv usuli.** Ahmad Donish o'z qarashlarini kuzatish va real tajribalar asosida shakllantirgan. Rossiya va Yevropa mamlakatlariga qilgan safarlarida davlat boshqaruvini o'rganib, Buxorodagi vaziyat bilan taqqoslagan.

Empirik usul bu – tajriba va kuzatuvga asoslangan ilmiy tadqiqot usuli bo'lib, nazariy mulohazalar emas balki amaliy tajriba va eksperimentlar orqali bilim olishga yo'naltirilgan. Ushbu usul aniq ma'lumotlar va dalillarga e'tibor qaratadi. Ahmad Donish ijtimoiy – falsafiy qarashlarida ham aynan mana shu usul asosiy o'rin egallaydi. Kuzatishlari orqali Buxoroning qoloqlik sabablarini tushuntirishga harakat qilgan. Ushbu nazariy hukmlar chiqarishdan ko'ra real faktlarni o'rganib tajribaga asoslangan xulosalar chiqarishga undaydi. Bu usul ilmiy bilim olishning amaliy va real faktlarga asoslangan usuli bo'lib, kuzatuv, eksperiment, tahlil va taqqoslash orqali haqiqatni o'rganishga xizmat qiladi.

2. **Tarixiy-tanqidiy tahlil usuli.** O'tmish tajribalarini o'rganish va tahlil qilish orqali jamiyat rivojlanishi haqida fikr yuritgan. Buxoroning o'tmishdagi buyuk davrlari qoloqlik bilan solishtirilib tanqidiy baholangan.

Tarixiy-tanqidiy usul – bu tarixiy manbalar, voqealarni tanqidiy tahlil qilish orqali o'rganish usuli bo'lib, u tarixiy faktlarning ishonchliligini tekshirish va ularning mohiyatini aniqlashga qaratilgan. Ushbu usul yordamida manbalar obyektiv baholanadi, noto'g'ri yoki bo'rtirilgan ma'lumotlar ajratib olinadi va tarixiy hodisalarga haqqoniy yondashuv ta'minlanadi. Ahmad Donish ijtimoiy – falsafiy qarashlari ushbu usulni ham uchratishimiz mumkin. U Buxoroning ilgari buyuk ilmfan markazi bo'lgani ammo XIX asrga kelib qoloqlik girdobiga tushib qolganini tarixiy dalillar orqali isbotlashga harakat qilgan. U shohlarning noto'g'ri boshqaruvi va mutaassiblikni tanqid qilgan. Ushbu usul tarixiy manbalarni chuqur tekshirib, ularning ishonchliligini baholash va voqealarni obyektiv tushuntirishga qaratilgan ilmiy yondashuvdir.

3. **Falsafiy dialektik usuli.** Bu davr ziyolilari falsafiy tafakkurga asoslangan holda jamiyat muammolarini tushuntirishga harakat qilgan. Muammolarni aniq tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq muqobil yechimlar taklif etilgan.

Falsafiy dialektik usul – bu voqelik, tabiat, jamiyat va tafakkurni rivojlanish jarayonida ichki ziddiyatlar va o'zaro bog'liqlik asosida o'rganish usulidir. U dialektika tamoyillariga tayanadi va har qanday hodisa yoki jarayonni o'zgarish, taraqqiyot va o'zaro ta'sir nuqtai-nazaridan tahlil qiladi.



Ushbu usul hamma narsa doimiy o'zgarish va rivojlanishda hamda ichki ziddiyatlar rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchidir degan asosiy qarashni ilgari suradi.

### XULOSA

Ahmad Donishning ilmiy qarashlarida ham ushbu usulning hukumronligini jamiyatni qoloqligini dialektik nuqtai-nazardan tahlil qilganidan ko'rishimiz mumkin. Ya'ni davlat boshqaruvi va ilmiy taraqqiyot o'rtasidagi kurash, eski an'anaviy boshqaruv tizimi va zamonaviy islohotlar zarurligi haqidagi qarashlari uning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida falsafiy dialektik usulning mavudligini ko'rsatib beradi.

Buxoro amirligi qoloqlik va zaiflikka yuz tutishi natijasida chor Rossiyasiga mustamlaka mamlakatga aylandi ana shunday bir vaqtda jamiyatni isloh qilish xalqni bilimli va ma'rifatli etib shakllantirish masalalarining boshlanish nuqtasi jadidchilik harakatlarining boshlanishiga turtki bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Toshqulov D. Donish., -M., 1990. B.70.
2. Rahmonov T.E. Orziyev M.Z. "Ikki tarixiy siymo". Buxoro 2015 yil 8-9-b.
3. I.Haqqul. Ahmad Kalla. Esse. kh-davron.uz electron kutubxonasi. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/ibrohim-haqqul-ahmad-kalla-esse.html> 13.03.2023. 14:12.
4. Razzoqov A. "Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari" –Toshkent., O'zbekiston 2011 yil. B-224-225.
5. Xerman Vambери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. –Тошкент, 1991
6. Ahmad Donish. Risola yoxud Mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. Dushanbe 1992. B-23.
7. T.E.Rahmonov, M.Z.Orziyev."Ikki tarixiy siymo" Buxoro 2015. 32-b.
8. Ахмад Дониш.Рисола ёхуд мангитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи. –Тошкент, 2014. –Б. 42
9. Sobir O'nar "A.Donish davrida ijtimoiy hayot". "Yoshlik" //, 2014 yil, 5-son
10. S.Ayniy "Esdaliklar" T.-5 -tom: 1965. 149-bet
11. Бертельс Е. Э. Рукописи произведений Ахмада Каллэ // Труды таджикской базы АН СССР. М.; Л., 1936. Т. 3. Лингвистика. С-19
12. Хаврак А.П. Философия. Учебное пособие. –М.: 2005. С-250.